

OLIV TA'LIMDA OLIV BORILAYOTGAN ISLOHOTAR HAQIDA.

Karimov Kamoldin Nasriddinovich

ADCHTI Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari sonining oshishi, xalqaro akkreditatsiya jarayonlari va dual ta'lim tizimining joriy etilishi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim dasturlari optimallashtirilib, xalqaro tajribalar asosida kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirilmoqda.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, islohotlar, dual ta'lim, innovatsiya, kadrlar tayyorlash, xalqaro tajriba, ta'lim sifati.

O'zbekiston Respublikasi aholisi 2025-yil 1-yanvar holatiga 37,5 million kishini tashkil etadi. Bugungi kunda aholining 4 foizga yaqini oliy ta'lim muassasalari talablari hisobanadi. Ya'ni 1,5 millondan ortiq yoshlar oliy ta'lim muassasalarida tahsil olmoqdalar.

Ushbu talabalar raspublikamizning 208 ta oliy ta'lim muassasalarida, jumladan 988 mingdan ziyodi davlat oliy ta'lim muassasalarida, nodavat ta'lim muassasalarida 513 mingdan ortiq va xorijiy oliy ta'lim muassasalarida esa 40 ming nafardan ziyod yoshlar bilim olmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan oliy ta'limni rivojlantirishga doir qator qarorlar, buyruqlar qabul qilingan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tadqiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son-li farmoni bo'lib O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim

texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan.

Ushbu farmon qabul qilingandan hozirgi kungacha bo‘lgan vqt mobaynida Respublikamizda oliy ta’lim muassasalari 114 tadan 208 taga yetishi oliy ta’lim qamrovini 2030-yilgacha 50 foizga chiqarish imkoniyatini beradi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi axborotiga ko‘ra 2024-yilda O‘zbekiston oliy ta’limi quyidagi yutular bilan faxrlansa arziydi:

-Ta’lim yo‘nalishlarini optimallashtirish maqsadida mazmun jihatidan yaqin bo‘lgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari 40 foizgacha maqbullashtirildi. 183 ta ta’lim yo‘nalishi va 546 ta mutaxassislik bo‘yicha malaka talablari, 1 278 ta o‘quv reja va 4 mingdan ortiq o‘quv dasturlari tasdiqlangan.

-Bundan tashqari, 7 ta oliygohdagi 39 ta ta’lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazildi. Shu bilan birga, Top-500 ga kirgan 9 ta xorijiy oliygoh bilan hamkorlikda 15 ta qo‘shma ta’lim dasturi tashkil etilgan.

-Xorijiy tajribalarni o‘quv jarayoniga jalb qilish ham muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, 4 970 nafar professor-o‘qituvchi xorijda malaka oshirdi, 2 510 nafar xorijiy professor-o‘qituvchi o‘quv jarayoniga jalb etilgan.

-Shuningdek, kasbiy ta’lim muassasalariga 169195 nafar yoshlar qabul qilindi. 14 673 nafar ishsiz fuqarolar 38 ta kasbga o‘qitilgan.

-418 ta kasbiy ta’lim tashkilotida 7 677 ta korxonalar bilan 30,8 ming nafar o‘quvchi 114 ta kasb bo‘yicha dual ta’limga jalb etilgan.

-Hududlarda 4 ta innovatsion faoliyat infratuzilma subyektlari tashkil etilib, ularning umumiy soni 55 taga yetkazilgan.

-Oliygozlarda 27364 o‘rinli talabalar turar joyi va 10500 o‘rinli o‘quv [binolari yaratilgan](#).

Ushbu ko‘rsatkichlar albatta O‘zbekiston yoshlarining sifatli ta’lim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda respublikamizni jahon arenalarida o‘z o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu fikrimizning asosi sifatida shuni takidlash joizki, hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qaror va farmonlar ta’lim sifatini oshirish, yoshlarimizning jahon

andozalarida ta'lim olishlari va buning asnosida yurtimiz, jamiyatimiz uchun kelajagi porloq yetuk kadrlar bo'lib yetishishlari uchun xizmat qiladi.

Qaror loyihasiga ko'ra, Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanadi. Ushbu nizomda dual ta'limning maqsad va vazifalari, dual ta'limni tashkil etish va uning bosqichlari, dual ta'limda o'quv jarayoni va malaka amaliyotini olib borish tartibi, dual ta'lim ishtirokchilarining vazifalari, huquq va majburiyatlari belgilanmoqda.

Shuningdek, qaror loyihasida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarga iqtisodiyot tarmoqlarida tegishli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojni o'rganish, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlash takliflarini taqdim etish, dual ta'lim tashkil etiladigan tashkilotlar bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga takliflar kiritish, dual ta'lim tizimini tashkil etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni shakllantirish bo'yicha topshiriq va vazifalar belgilanmoqda.

Qaror loyihasida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarga har yili tasdiqlangan chora-tadbirlar asosida talabalarni dual ta'lim dasturlari asosida o'qishga jalb etish ishlarini tashkil etish, dual ta'lim tashkil etiladigan tashkilot va oliy ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini tashkil etish yuzasidan hamkorlikni yo'lga qo'yilishini hamda kelishilgan o'quv rejasi va o'quv jarayoni jadvalini tasdiqlanishini ta'minlash, talabalarni belgilangan muddatlarda oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlarida ishtirok etishlarini va tegishli tashkilotlarda amaliy mashg'ulotlar bilan birga mehnat faoliyati olib borishlarini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim jarayonini tashkil etilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatish vazifalari belgilanmoqda.

Shu bilan birga Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi har yili 1-mayga qadar tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishilgan holda dual ta'lim tashkil etiladigan oliy ta'lim yo'nalishlari va muassasalarini [belgilaydi](#).

Dual ta'lim bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga talabalarni o'qishga qabul qilish parametrlari Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarning takliflari asosida tasdiqlanadi.

Qayd etilishicha, loyihani tayyorlashda jahondagi yetakchi mamlakatlar, jumladan Germaniya, Ispaniya, Italiya, Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Malayziya oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim shaklini joriy etish borasidagi tajribalari o'rganilgan.

Ma'lumot uchun, dual ta'lim (shakli) – ta'limning nazariy qismi oliy ta'lim muassasada, amaliy qismi esa ish joyida o'tkaziladigan shakli hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda hukumatimiz tomonidan oliy talimni yuqori darajaga olib chiqish borasida amalga oshirilayotgan ishlar butun oliy ta'lim tizimi xodimlari va qatnashuvchilariga tegishli vazifa yuklaydi. Hurmatli prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivijlantirish konsepsiyasini tadqiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son-li farmoni
2. <https://talimxabarlari.uz/17951/>
3. <https://xabar.uz/uz/mahalliy/oliy-talim-tizimida-dual-talim-tashkil-etiladi-loyiha>